

KEMIRUVCHILAR (RODONTIA) TURKUMINI O‘RGANISH BO‘YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLARNING QISQACHA SHARHI

Tursunov Olim Toshtemir o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universitetining Biologiya kafedrasida o‘qituvchisi

tursunovolim04@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Kemiruvchilar (*Rodentia*) turkumi vakillari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va ularning qisqacha sharhlari to‘g‘risidagi materiallar yoritilgan.

Аннотация: В статье представлены материалы исследований, проведенных на представителях семейства Rodentia, и их краткие комментарии.

Annotation: The article presents the materials of studies conducted on representatives of the Rodentia family, and their brief comments.

Kalit so‘zlar: Kemiruvchilar, tur, turkum, kalamush, sichqon, yumronqoziq, parazit, fauna.

Ключевые слова: Грызуны, вид, род, крыса, мышь, суслик, паразит, фауна.

Key words : Rodents, view, genus, rat, mouse, gopher, parasite, fauna.

Hayvonot dunyosi tabiatning ajralmas qismi sifatida tabiatda va insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Kemiruvchilar -Rodentia turkumi sut emizuvchilar-Mammalia sinfiga mansub bo‘lib, turkumning ayrim turlari Yer yuzida keng tarqalgan va hozirgi vaqtda o‘z arealini kengaytirib borayotgan turlar sanaladi. Bu turkum vakillarining morfologiyasiga xos xususiyatlarga ularning tanasini g‘o‘lasimonligi, uzunligi 5-130 sm. Ko‘pchilik kemiruvchilarning oyog‘ida yer kavlashga moslashgan tirnoqlari bor. Boshi uzunchoq, tepasi yassi. Ko‘zi turtib chiqqan, ba’zilarida esa rivojlanmagan (ko‘rsichqonlarda). Labida qilsimon mo‘ylovi bo‘lib, qoziq tishlari ko‘rinib turadi. Nutriya, ondatra va boshqa ayrim turlari sanoat miqyosida mo‘ynasi

uchun ovlanadi. Kemiruvchilarning orasida ayrim turlari qishloq xo‘jaligi zararkunandalari sanaladi. Markaziy Osiyoda uchraydigan eng yirik kemiruvchilardir jayra (*Hystrixhirsu tirostus* Vg.) va sariq yumronqoziq (*Citellus falvus oxianus* Thorns.) beda ekiniga, g‘allaga, tokzorlarga, mevali bog‘larga zarar keltiradi va o‘lat kasalligini tarqatadi. Relikt yumronqoziq (*Citellus relectus* Kaschk.) qir-adirlardagi bug‘doy, arpa ekinlarini shikastlaydi.

Dunyo miqyosida, jumladan O‘zbekistonda kemiruvchilar faunasi, ekologiyasi va epidemiologik ahamiyatini o‘rganishga doir bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan Xamroqulova Z.X. (2020) o‘zining “O‘zbekistonning shimoli-sharqiy mintaqasi kemiruvchilar (Rodentia) turkumining gelmintofaunasi, ekologiyasi va ahamiyati” mavzusidagi dissertatsiyasida Toshkent, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida 12 turga mansub 1057 ta kemiruvchilar gelmintofaunasi o‘rganilgan [1; 47]. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Tabiat fanlar kompleks instituti tadqiqotchisi R.Reymovning ilmiy natijalari “Опыт экологического и морфофизиологического анализа фауны млекопитающих южного Приаралья” monografiyasida aks ettirilgan. Monografiyada O‘rta Osiyoning Shimoli-G‘arbiy Qizilqum cho‘llarida kemiruvchilarning turli taksonomik va ekologik guruhlarining o‘ziga xosligi, biologiyasiga doir (tarqalishi, ko‘payishi va boshqalar) ma’lumotlar keltirilgan [2]. G.A.Asenov o‘zining ilmiy izlanishlarida qumsichqonlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rgangan. Qumsichqonlarning ektoparazitlari, shuningdek, tabiiy o‘choqlarning ekologik jihatlari va o‘lat epizootologiyasi asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan [3]. Andreychev A.V. (2011) tadqiqotlarida Mordoviyada uchrovchi kemiruvchilarning ekologik va faunisticheskiy tahlili keltirilgan. Unga ko‘ra mazkur hududda kemiruvchilarning 27 turini uchrashi qayd etilgan. turlarning zichligi region doirasida odatdagi, kam sonili va noyob turlarga ajratilgan [4]. Zolina N.F. (2012) o‘zining “Melkopitayushiye urbanizirovannix territoriy Srednego Povoljya na primere goroda Penzi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida Penza shahrida uchrovchi sut emizuvchilar faunasini o‘rgangan. Tadqiqotlar natijasida mazkur shaharda 6 turkum, 16 oilaga mansub 52 turdagi sut

emizuvchilarning uchrashi qayd etilgan. Sinatroplikka moyilligi bo‘yicha ushbu turlar 3 ta guruhga ajratilgan: haqiqiy sinantrop (evisinantrop), gemisinantrop va ekzoantrop [5].

Keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda, kemiruvchilarni o‘rganishga bag‘ishlangan oxirgi tadqiqotlarning aksariyati ularning ektoparazitlarini tadqiq etishga tegishli bo‘lib, ular asosan tabiiy landshaftlarda (Qizilqum, Ustyurt va boshq.) olib borilgan. Oxirgi yillarda kemiruvchilar arealining o‘zgarish oqibatida ularning ayrim turlarini inson bilan yonma-yon yashashga o‘tishi, uning xo‘jalik yuritish maskanlariga kirib kelishi kuzatilmoqda. Shu asosda aytish mumkinki, endilikda kemiruvchilarni madaniy landshaftlar kesimida o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xamroqulova Z.X. O‘zbekistonning shimoli-sharqiy mintaqasi kemiruvchilar (Rodentia) turkumining gelmintofaunasi, ekologiyasi va ahamiyati. B.f.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati. Nukus, 2020.-47 b.
Реимов Р. Р. К экологии большой песчанки в условиях трансформации ландшафта Южного Приаралья. //Ж. Вестник ККО. АН РУз. –Нукус, 1996. №4. – С. 14-20.
2. Асенов Г.А. Значение большой песчанки (*Rhombomys opimus*) в природной очаговости чумы на территории Республики Каракалпакстан // Автореф. дисс. ... докт. биол. наук. - Ташкент - 1999. – С. 52.
3. Андрейчев А.В. Эколого-фаунистический анализ населения грызунов и насекомоядных млекопитающих Республики Мордовия. Автореф. дисс. на соис.канд. биол. наук. Саранск, 2011. 23 с.
4. Золина Н.Ф. Мелкопитающие урбанизированных территорий Среднего Поволжья на примере города Пензы. Автореф. дисс. на соис.канд. биол. наук. Саранск, 2012. 20 с.